

**KOMIL INSONNING SHAKILLANISHIDA MILLIY G'OYANING
O'RNI****Ravshanova Maxsuda***Samarqand Davlat Pedagogika Instituti**Ijtimoiy fanlar fakulteti**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 12.11.2025**Revised: 13.11.2025**Accepted: 14.11.2025***KALIT SO'ZLAR:***komil inson, milliy
g'oya,
insonparvarlik,
ma'naviyat,
insoniylik, barkamol
inson.**Ushbu maqollada shaxsning insonparvar va estetik jihatdan yuksak darajadagi komil inson qilib tarbiyalash masalasiga e'tibor qaratilgan. Har bir yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni ochib berilgan. Shuningdek, milliy g'oya inson ong va qalbida vatanparvarlik, ma'naviyat va insoniylik tuyg'ularini uyg'otib komillik sari yo'naltiruvchi kuch ekanligi ilmiy asoslar bilan ko'rsatib beradi.*

Har bir jamiyat taraqqiyotida komil va barkamol insonlar millat va jamiyat va davlat taqdiriga sezirali ta'sir ko'rsatadi. Komillikning asosiy asosiy jihatlari bu insoniy fazilatlarning uyg'unl ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikrva oqilona so'z bilan amaliy faoliyatda til va dili birday bo'lishi komillikning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqida Sharq mutaffakirlari ham o'z fikrlarini bayon etib ketishgan. O'zbekiston Respublikasida komil inson g'oyasi dunyoviylik asosida bayon qilinmoqda. Milliy g'oya esa insonlarni komillik sari yetoklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oyada komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotga ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, ishlarining markazga qo'yish, ularni yangi bosqichga

ko'tarish,yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarasg egalari qilib tarbiyalash asosiy vazifa bo'lib kelmoqda.Shu bois komil inson tarbiyasida milliy g'oyaning o'rni masalasini chuqur o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.Bugungi globalashuv sharoitida ta'lim va tarbiya muommolari va xususan komil inson masalasi doimo ulkam ma'rifiy vazifa sifatida qaralgan. Bu masala ayniqsa o'tmish allomalari ijodida o'z aksini topgan.

O'rta asrning yirik namoyondalari Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalar ham o'z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan fikrlarni bayon qilgan.Masalan, Inson qadr-qimmatini aql-zakovati ijodiy va bunyodkorlik imkoniyatiga yuksak baho bergan Farobiy uchun inson shunchaki tirik mavjudot emas, balki o'z mohiyatiga ko'ra,aql idrokning kuchi orqali komillikka daxldor bo'lgan ijtimoiy xususiyatlar sohibidir-deydilar.

XIX asrda yozilgan Ahmad Donishning "o'g'illariga nasihat" yoki Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida, ular bilan zamondosh bo'lgan boshqa olim-u fuzalolarning asarlarida ham komil inson asosiy mavzularda biri bo'lib kelgan. Xususan, Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot,yo mamot masalasidir" deb, ta'kidlab,insonni komillikka eltuvchi yagona yo'l sifatida ma'naviy va axloqiy tarbiyani ko'rsatgan.¹¹⁴

XXI asrning eng muhim masalalaridan biri odamning odamiyligini asrab qolish, shaxs tabiatining tabiiyligini saqlash inson qalbidagi eng ezgu sifatlarni himoya qilish, odamzodning ma'naviy tanazzuldan qo'riqlashdir.Shu jihatdan qaraganda, yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni tarbiyalash miliy g'oyaning eng muhim mafkuraviy asosi hisoblanadi.Shuningdek,insonni har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi,shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorni o'zgartirish respublikada amalga harakatlantiruvchi kuchdir. Milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri ham komil inson g'oyasidir. Unda keltirilishicha, komil inson bu ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujjasam etgan uni hamisha ezgulikka undaydigan g'oyadir.

¹¹⁴ Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent:O'zbekiston Davlat nashriyoti,1992-17-bet.

Xulosa

Miliy g'oyaning asosiy maqsadlarida biri-har tomonlama komil insonlarni tarbiyalashdir. Hozirgi davrda yaratilgan ta'lim tizimining yangi modeli mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Bu modelni ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad insonning o'z qadri va g'ururini anglashiga, irodasini mustahkamlashiga, hayotda aniq maqsadga ega bo'lishiga yordam beradi. Milliy g'oya nafaqat komil insonni shakllantiruvchi kuch, balki insoniyat forovonligiga xizmat qiladigan buyuk shaxslarning yetishib chiqishiga ham turtki bo'luvchi omildir. Shu bois milliy g'oya fuqarolik jamiyatini qurishda muhim o'rin tutadi va barkamol, ijodkor insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyilar: Toshkent. O'zbekiston. 2000.
2. Jo'rayev N. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar: Toshkent Ma'naviyat. 2016
3. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Toshkent. 2001
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston. Toshkent. 2023.
7. Xo'jayev H. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya nazariyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Karimov D. Shaxs komolatida ma'naviy tarbiyaning o'rni. - Toshkent: Fan, 2017.
9. Sodiqov U. Milliy g'oya va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.